ONLINE JOURNAL
E-ISSN:3060-5490

INSTITUTE OF UZBEK NATIONAL
MUSICAL ART NAMED AFTER YUNUS RAJABI

Milliy Madaniyat Jurnali - Журнал Национальной Культуры

Journal of national CULTURE

Опубликована: 30.09.2026
DOI: https://doi.org/10.64681/vrzbj126

ilmiy uslubiy jurnali – научно-методический журнал – research and methodological journal

Shimoliy Baqtriya antik davr musiqa madaniyatining an’anaviy bilim va ko‘nikmalari: ikonografik manbalar tahlili

(Traditional knowledge and skills in the music culture of ancient Northern Bactria: An analysis of iconographic sources)

Mukhabbat Shoyusupova

Research Institute of Culturology and Intangible Cultural Heritage
under the Ministry of Culture of the Republic of Uzbekistan
30 A. Navoi Street
Uzbekistan/Tashkent
ORCID: https://orcid.org/0009-0005-1728-9722
E-mail: muhabbat.user@icloud.com

Annotatsiya

Maqolada qadimgi Shimoliy Baqtriyaning musiqiy yodgorliklari, xususan, Ayritom frizi va ayol sozandalarning terrakota haykalchalari nomoddiy madaniy meros unsurlari – an’anaviy bilimlar va ijrochilik ko‘nikmalarini hujjatlashtirish manbasi sifatida tahlil qilinadi. Antik davr musiqasi tovush shaklida saqlanib qolmagan bo‘lsa-da, ikonografik materiallarda cholg‘ularni tutish, chalish va ansambl tarkibida birlashtirish usullarining izlari saqlangan. Avvalgi tadqiqotlarda bunday tasvirlar asosan moddiy madaniyat obyektlari, cholg‘ular esa tipologik birliklar sifatida o‘rganilgan, biroq ularning UNESCOning 2003-yilgi konvensiyasi nuqtayi nazaridan bilim va ko‘nikmalarni hujjatlashtirishdagi ahamiyati tadqiq etilmagan. Tadqiqotda tasvirda namoyon bo‘ladigan bilim va ko‘nikmalarni uch guruhga ajratuvchi tahliliy model taklif etiladi: ijrochilik ko‘nikmalari (cholg‘uni tutish, ijro paytidagi tana holati, qo‘llarning cholg‘uga nisbatan joylashuvi, ansambl ijrochiligi); cholg‘u tuzilishiga oid bilimlar; ijrochilar jamoasi va marosim kontekstiga oid bilimlar. Modelda har bir parametr bo‘yicha tasvir orqali aniqlash mumkin bo‘lgan va aniqlab bo‘lmaydigan jihatlar ajratiladi. Model Ayritom frizidagi uch sozanda hamda ikkita qo‘shimcha tasvir misolida sinovdan o‘tkaziladi. M. Masson, K. Trever va G. Pugachenkovaning talqinlari ijrochilikning marosimiy, dunyoviy-saroy va mahalliy jamoaga oid jihatlarini yorituvchi dalillar sifatida qiyoslanadi. Natijalar ikonografiya jonli an’anani emas, balki ko‘nikmalarning tarixiy izlarini hujjatlashtirishini ko‘rsatadi. Shu sababli zamonaviy amaliyotlar bilan davomiylik haqidagi fikrlar faqat tipologik o‘xshashlik darajasida ilgari surilishi mumkin va qo‘shimcha manbalar hamda dala tadqiqotlari orqali tekshirilishi lozim.

Kalit so‘zlar: nomoddiy madaniy meros, an’anaviy bilim va ko‘nikmalar, ijrochilik ko‘nikmalari, musiqiy ikonografiya, Shimoliy Baqtriya, Kushon davri, Ayritom frizi, hujjatlashtirish.

Institute of Uzbek National Musical Art named after Yunus Rajabi
JOURNAL OF NATIONAL CULTURE, 2 (3), 2026
www.jnculture.uz

Abstract

The article analyzes the music monuments of ancient Northern Bactria, namely the Airtam (Ayritom) frieze and terracotta figurines of female musicians, as a source for documenting elements of intangible cultural heritage: traditional knowledge and performance skills. Music of antiquity has not survived as sound, but iconographic materials preserve traces of how instruments were held, played and combined in ensembles. Previous studies mostly treated such images as objects of material culture and instruments as typological items, while their value for documenting knowledge and skills in the sense of the 2003 UNESCO Convention remained unexplored. The study proposes an analytical model that divides the knowledge and skills visible in an image into three groups: performance skills (holding the instrument, performing posture, relation of the hands to the instrument, ensemble playing); knowledge of instrument construction; and knowledge about the performing community and ritual context. For each parameter the model separates what an image can reveal from what it cannot. The model is tested on three musicians of the Airtam frieze and two additional images. The interpretations of M. Masson, K. Trever and G. Pugachenkova are compared as evidence of the ritual, secular-court and local community aspects of performance. The findings show that iconography documents historical traces of skills rather than a living tradition; therefore, continuity with present-day practices can be claimed only as typological similarity, which requires verification through additional sources and fieldwork.

Keywords: intangible cultural heritage, traditional knowledge and skills, performance skills, music iconography, Northern Bactria, Kushan period, Airtam frieze, documentation

Аннотация

В статье анализируются музыкальные памятники древней Северной Бактрии, а именно Айртамский фриз и терракотовые фигурки женщин-музыкантов, как источник документирования элементов нематериального культурного наследия – традиционных знаний и исполнительских навыков. Музыка античности не сохранилась в звуковой форме, однако иконографические материалы сохраняют следы способов удержания инструментов, игры на них и их объединения в ансамбли. В предыдущих исследованиях подобные изображения преимущественно рассматривались как объекты материальной культуры, а инструменты – как типологические единицы, тогда как их значение для документирования знаний и навыков в понимании Конвенции ЮНЕСКО 2003 года оставалось неизученным. В исследовании предлагается аналитическая модель, разделяющая знания и навыки, отражённые в изображении, на три группы: исполнительские навыки (удержание инструмента, исполнительская поза, положение рук относительно инструмента, ансамблевая игра); знания об устройстве инструментов; знания об исполнительском сообществе и ритуальном контексте. Для каждого параметра модель разграничивает то, что можно установить по изображению, и то, что оно установить не позволяет. Модель

апробируется на изображениях трёх музыкантов Айртамского фриза и двух дополнительных изображениях. Интерпретации М. Массона, К. Тревер и Г. Пугаченковой сопоставляются как свидетельства ритуальных, светско-придворных и локально-общинных аспектов исполнительства. Результаты показывают, что иконография документирует исторические следы навыков, а не живую традицию; поэтому преемственность по отношению к современным практикам может предполагаться лишь на уровне типологического сходства, требующего проверки с привлечением дополнительных источников и полевых исследований.

Ключевые слова: нематериальное культурное наследие, традиционные знания и навыки, исполнительские навыки, музыкальная иконография, Северная Бактрия, кушанский период, Айртамский фриз, документирование.

Kirish

Antik davr musiqa madaniyatini o‘rganish tadqiqotchilar uchun murakkab vazifa: bu davrga oid bevosita musiqiy asarlar saqlanmagan, tadqiqot manbasi sifatida faqat arxeologik topilmalar – terrakota haykalchalar, devoriy tasvirlar va boshqa ikonografik ashyolarda ifodalangan cholg‘ular, sozanda va xonandalar qiyofalari xizmat qiladi. Bu mavzu T. Vyzgo, R. Sadokov, A. Malkeyeva, F. Karomatov, V. Meshkeris, A. Nazarov, Z. Muradova, D. Karomat kabi olimlarning ishlarida o‘rganilgan [1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8]. Biroq bu tadqiqotlar asosan san’atshunoslik, cholg‘ushunoslik va arxeologiya doirasida yuritilgan: tasvirlar moddiy madaniyat yodgorligi, cholg‘ular esa tipologik obyekt sifatida talqin qilingan.

Musiqa esa mohiyatan nomoddiy hodisa: u ijro ko‘nikmasi, cholg‘u yasash bilimi, og‘zaki uzatish va jamoaviy xotira orqali yashaydi. YUNESKOning 2003-yilgi Konvensiyasiga ko‘ra nomoddiy madaniy meros jamoalar va guruhlar o‘z madaniyatining bir qismi deb tan oladigan amaliyotlar, tasavvurlar, ifodalar, bilim va ko‘nikmalarni, shuningdek ular bilan bog‘liq asboblar, buyumlar va madaniy makonlarni qamrab oladi; u avloddan avlodga o‘tadi va jamoalar tomonidan atrof-muhit hamda tarix bilan o‘zaro munosabatda doimiy qayta yaratiladi [9]. Konvensiya merosning beshta sohasini ajratadi: og‘zaki an’analar, ijro san’ati, ijtimoiy amaliyotlar, marosimlar va bayramlar, tabiat va olamga oid bilim va

amaliyotlar, an’anaviy hunarmandchilik. “Bilim va ko‘nikmalar” va “bog‘liq asboblar” tushunchalari musiqa ikonografiyasini bu tizim bilan bevosita bog‘laydi.

O‘zbekiston YUNESKO ro‘yxatlariga bir qator musiqa bilan bog‘liq elementlarni kiritgan: Shashmaqom (2008), Boysun tumani madaniy maydoni (2008), Katta ashula (2009), Xorazm raqsi lazgi (2019), baxshichilik san’ati (2021), rubob yasash va chalish san’ati (2024) [10]. Ularning tarixiy ildizlari odatda o‘rta asrlar va yangi davr manbalari bilan izohlanadi; antik qatlam esa bilim va ko‘nikmalar nuqtai nazaridan deyarli tahlil qilinmagan. Maqolada ana shu bo‘shliqni to‘ldirishga harakat qilindi.

Tadqiqot maqsadi – Shimoliy Baqtriya antik davr musiqa ikonografiyasida aks etgan an’anaviy bilim va ijrochilik ko‘nikmalarini aniqlash hamda ularni hujjatlashtirish metodikasini ishlab chiqishdir.

Ilmiy yangilik. Mazkur maqolaning ilmiy yangiligi shundaki, unda Shimoliy Baqtriya antik davr musiqa yodgorliklari (Ayritom frizi va terrakota haykalchalari) nomoddiy madaniy meros elementlari – an’anaviy bilim va ijrochilik ko‘nikmalarini hujjatlashtirish manbai sifatida o‘rganiladi. Xususan: birinchidan, tasvirlarda aks etgan ijro holati, cholg‘uni tutish usuli va ansambl tuzilishi ijrochilik ko‘nikmalarining tarixiy izi sifatida tasniflandi; ikkinchidan, cholg‘u shakli va tuzilishi cholg‘u yasash bilimining bilvosita dalili sifatida talqin qilindi; uchinchidan, M. Masson, K. Trever va G. Pugachenkova talqinlari ijrochilar jamoasi va marosimiy kontekst haqidagi bilimlarni aniqlash nuqtai nazaridan tizimlashtirildi; to‘rtinchidan, tasviriy dalildan chiqarish mumkin bo‘lgan va mumkin bo‘lmagan xulosalar chegarasi belgilandi.

Metodologiya va manbalar

Ikonografik manbalarning asosiy murakkabligi shundaki, tasvir cholg‘uning tovushini emas, faqat uning shakli, tuzilishi va ijro holatini saqlaydi. Shu bois musiqa tasvirlari yakka holda emas, qiyosiy-tipologik tahlil, yozma manbalar va

qo‘shni mintaqalar materiallari bilan birga o‘rganiladi. Nomoddiy meros nuqtai nazaridan yana bir cheklov bor: antik davr musiqa amaliyoti bugun jamoalar tomonidan uzluksiz uzatilmaydi, demak, u Konvensiya ma’nosidagi “tirik meros” emas. Ikonografik tasvir esa o‘sha davr bilim va ko‘nikmalarining tarixiy izi, ya’ni hujjat vazifasini bajaradi. Bu farq maqolaning asosiy metodik chegarasi sifatida saqlanadi.

Tasviriy manbadan olinishi mumkin bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar uch guruhga ajratildi (1-jadval). Har bir parametr bo‘yicha tasvirdan nima ko‘rinishi va nima ko‘rinmasligi alohida belgilanadi.

1-jadval. Musiqa ikonografiyasidan bilim va ko‘nikmalarni aniqlash modeli

Guruh	**Parametr**	**Tasvirdan ko‘rinadigan**	**Tasvirdan ko‘rinmaydigan (cheklov)**
A. Ijrochilik ko‘nikmalari	1. Cholg‘uni tutish va ijro holati	Cholg‘uning ko‘krak oldidagi vaziyati, qiyaligi, ijrochining o‘tirish yoki turish holati.	Ijro davomiyligi, harakat dinamikasi.
A. Ijrochilik ko‘nikmalari	2. Qo‘l va barmoqlar harakati	Qo‘llarning cholg‘uga nisbatan joylashuvi; barmoqlarning torlar ustida turishi.	Tovush hosil qilish aniq usuli (barmoq yoki plektr), sozlash.
A. Ijrochilik ko‘nikmalari	3. Ansambl tarkibi va tartibi	Bir necha ijrochining birga tasvirlanishi, cholg‘ular turlari.	Repertuar, ohang, ijro tartibi.
B. Cholg‘u bilimi	4. Tuzilish va shakl	Kosa shakli, dasta uzunligi, torlar joylashuvi, rezonator tuzilishi.	Materiallar, yasash texnologiyasi, torlar turi.
C. Jamoa va kontekst	5. Ijrochilar jamoasi	Kiyim, bosh kiyim, taqinchoq, antropologik tip.	Ijrochining ijtimoiy mavqeyi, mashq va ta’lim usuli.
C. Jamoa va kontekst	6. Marosimiy-ijtimoiy kontekst	Syujet (masalan, Parinirvana), me’moriy joylashuv (ibodatxona frizi).	Real marosim qanday o‘tgani; syujet va hayotiy amaliyot munosabati.

Manbalar sifatida yozma ma’lumotlar (Strabon asari), ikonografik materiallar (terrakota haykalchalar, tosh relyeflar, ritonlar) va ularga bag‘ishlangan tadqiqotlar olingan. Mavjud tadqiqotlarni uch yo‘nalishga ajratish mumkin: hududiy-tarixiy (R. Sadokov), cholg‘ushunoslik (A. Malkeyeva, A. Nazarov) va ikonografik (Z. Muradova). Fikrimizcha, ularning aksariyati alohida topilmalar yoki cholg‘u

turlarini tahlil qilishga tayanadi; tasvirlarda ko‘rinadigan ijro ko‘nikmalari esa tizimli tasniflanmagan.

Shimoliy Baqtriya musiqa madaniyati: manbalar va tadqiqotlar

Diniy tasavvurlar va musiqa. Qadimgi davrda (mil. avv. IV asr – mil. I asr) Markaziy Osiyo mahalliy aholisi ishlatgan musiqa asboblari asosan puflama va torli cholg‘ulardan iborat bo‘lib, ular diniy marosimlarda muhim o‘rin tutgan. Arxeologik yodgorliklardan topilgan arfa, doira va fleyta shakllari shu davr musiqiy an’analaridan dalolat beradi [1]. Zardushtiylik marosimlarida muqaddas matnlar maxsus kohinlar tomonidan ohangli, ya’ni kuylash shaklida ijro etilgan; bu diniy matnlarning og‘zaki-musiqiy an’ana orqali saqlanganini ko‘rsatadi. Muqaddas madhiyalarning vokal tarzda ijro etilishi antik yozma manbalarda, jumladan Strabonning “Geografiya” asarida forslarning qurbonlik odatlari tasvirida ham qayd etilgan [11, 2]. Buddaviylikning Shimoliy Baqtriyaga kirib kelishi bilan musiqa san’ati yangi mafkuraviy mazmun kasb etdi: buddaviy ibodatxona majmualari va haykaltaroshlik kompozitsiyalarida musiqachilar tasviri keng uchraydi, mahalliy ustalar esa Gandxara maktabi an’analarini o‘zlashtirgan holda musiqachilar obraziga mintaqaviy xususiyatlarni kiritganlar.

Cholg‘ular va ularning tarqalishi. Tasviriy manbalarda Shimoliy Baqtriyada qadimdan mavjud bo‘lgan cholg‘ular realistik ifodalangan: torli (lyutnya, kifara), puflama (turli naylar, avlos) hamda zarbli (buben turidagi doira) cholg‘ular. L. Pikken, H. G. Farmer, K. Zaks, T. Vyzgo kabi olimlarning tadqiqotlarida qisqa dastali udsimon cholg‘ularning ilk vatani qadimgi Markaziy Osiyo ekani asoslab berilgan; bu cholg‘u mil. I asrdan boshlab turli nomlar bilan qo‘shni mamlakatlarga – Xitoy, Hindiston va Afg‘onistonga tarqala boshlagan. L. Pikken qadimgi qisqa dastali cholg‘uning kelib chiqishi, tarixiy dalillari hamda Kushon davri san’ati orqali tarqalishi masalasini tahlil qiladi [12]. Udsimon cholg‘ularning mil. I asrdan boshlab

keng tarqalishi Kushon davlatining Buyuk Ipak yo‘li bo‘ylab tutgan o‘rni bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Mavjud tadqiqotlar. R. Sadokov Xorazm hududida musiqa madaniyati tarixini o‘rganib, qadimgi davrlarda musiqiy ijro an’analari jamiyat hayotida chuqur o‘rin tutganini ko‘rsatadi; musiqaning din, bayram, saroy va hunarmandchilik hayoti bilan bog‘liqligi Baqtriya tasvirlarini talqin qilishga yordam beradi [4]. A. Malkeyeva Shimoliy Baqtriya hududidan topilgan cholg‘ularning – xususan lyutnya, fleyta va zarbli asboblarning – shakli, vazifasi va tarqalishini tahlil qilib, Markaziy Osiyo cholg‘ularining hind-eron va yunon-rim madaniyatlari bilan o‘zaro aloqadorligini ko‘rsatadi [5]. A. Nazarov asosan arxeologik topilmalar orqali cholg‘ularning tarqalishini tahlil qiladi [6]. Z. Muradova Baqtriya frizlari, terrakota haykalchalari va boshqa tasvirlarga tayanib, musiqa tasvirlari faqat diniy mavzu bilan cheklanmay, dunyoviy hayot sahnalarini ham aks ettirganini ko‘rsatadi [7].

Kushonlar davrida musiqa madaniyati. Kushonlar davrida (I–III asrlar) Baqtriya shaharlarida musiqa madaniyati yuksak darajada rivojlangan bo‘lib, nafaqat dunyoviy, balki diniy marosimlarda ham muhim o‘rin egallagan. Ayritom, Kampirtepa, Xolchayon, Zartepa va boshqa yodgorliklardan topilgan terrakota musiqachi haykalchalar turli asboblar – arfa, nay, lyutnya va boshqalar bilan tasvirlangan. Arxeologik dalillarga tayanib, Kushon davrida musiqiy ansambllar dunyoviy tantanalarda, saroy marosimlarida va diniy ibodatlarda ishtirok etgan, deb taxmin qilish mumkin.

Ayritom frizi: ijrochilik ko‘nikmalari va cholg‘u bilimi tahlili

1932-yilda Termiz shahridan taxminan 7 kilometr yuqorida joylashgan Ayritom hududida olib borilgan arxeologik qidiruvlar jarayonida Amudaryo tubidan muhim san’at yodgorligi – akant barglari orasida arfa, do‘mbra va ud chalayotgan belbog‘li uch musiqachi tasvirlangan tosh relyef topildi (1- va 2-rasmlar) [13]. 1933-yilda Ayritomda davom ettirilgan izlanishlar natijasida bo‘rtma tasvirli yana yettita

tosh blok aniqlandi; bu topilma relyefning ehtimol ibodatxona majmuasi yoki diniy bezak frizining bir qismi bo‘lganini ko‘rsatadi. Ayritom frizi Baqtriyada toshdan yaratilgan kam sonli asarlardan biri bo‘lib, “Parinirvana” mavzusini aks ettiradi: unda osmon musiqachilari – gandxarvalar hamda gullar va idishlar ko‘targan osmon ma’budalari tasvirlangan. Hind rivoyatlariga ko‘ra, beshta buyuk musiqa asbobining muloyim ovozi vafot etgan Buddaga orom bag‘ishlashi lozim; frizda esa bu afsonaviy lavha mahalliy aholi obrazlari orqali ifodalangan, bu esa uni shu yerlik aholi uchun tushunarli qilgan. Ayritom frizining Gandxara san’ati bilan yaqin aloqadorligi ham aniqlangan [13].



Rasm. 1. Ayritom haykaltaroshlik bloki lagerga keltirilgan kuni (Termiz, 1979-yil 11-dekabr). Arxeologlar (chapdan o‘ngga): Sh. Rahmonov, E. Rtveladze, Y. Nekrasova, B. Turg‘unov, B. Almeyev (haydovchi)



Rasm. 2. Ayritom haykaltaroshlik bloki (yuqorida) va musiqachi ayol tasvirlari (pastda, chapdan o‘ngga: 1–5)

2-rasmni ijrochilik ko‘nikmalari va cholg‘u bilimi nuqtai nazaridan ko‘zdan kechirish quyidagilarni ko‘rsatadi (2-jadval). Quyidagi tavsiflar tasvirning o‘zidan chiqarilgan kuzatuvlar bo‘lib, ularni cholg‘ushunos mutaxassis bilan tekshirish zarur.

2-jadval. Ayritom frizi va unga yaqin tasvirlarda ko‘rinadigan ko‘nikmalar (2-rasmdagi 1–5 lavhalar, chapdan o‘ngga)

Lavha	Cholg‘u (taxminiy talqin)	Ko‘rinadigan ijro holati va ko‘nikma	Cheklov
1	Qisqa dastali udsimon (lyutnyasimon) cholg‘u	Cholg‘u ko‘krak oldida qiya tutilgan; bir nechta parallel tor va qisqa dasta ko‘rinadi; bir qo‘l dasta yaqinida joylashgan. Ijrochi boshi o‘rama bilan o‘ralgan.	Torlar soni va chalish usuli (plektr yoki barmoq) aniq emas.
2	Dumaloq kosali cholg‘u (do‘mbrasimon deb talqin qilingan)	Cholg‘u kosasi qirrali yuzali tasvirlangan, ko‘krak darajasida ikki qo‘l bilan ushlangan. Ijrochi sirg‘a va marjon taqqan, sochi to‘lqinsimon.	Dasta va torlar yaxshi ko‘rinmaydi; cholg‘u turi taxminiy.
3	Arfa turidagi cholg‘u	Cholg‘u uchburchaksimon, parallel torli, yelka yaqinida qiya tutilgan; barmoqlar torlar ustiga qo‘yilgan, bu torlarni barmoq bilan chalishga ishora qilishi mumkin. Ijrochining boshida naqshli bosh kiyim va marjon.	Barmoq harakati bir lahzali tasvirdan ko‘rinadi; sozlash noma’lum.
4–5	Ko‘krak oldida ushlangan cholg‘u (musiqachi ayol tasvirlari)	Ijrochi ikki qo‘l bilan cholg‘uni ko‘kragiga bosgan; pastki qismdagi vertikal chiziqlar torlar yoki kiyim burmasi bo‘lishi mumkin.	Kichik o‘lcham tufayli cholg‘u tuzilishi noaniq.

Tasvirlardan quyidagi umumiy xulosalarni chiqarish mumkin. Birinchidan, ijrochilik ko‘nikmalari bo‘yicha: torli cholg‘ular ko‘krak oldida qiya yoki tik holatda ushlangan, ijrochilar ikki qo‘llari bilan cholg‘uni boshqargan, arfa turidagi cholg‘uda barmoqlar torlar ustiga qo‘yilgan. Ikkinchidan, ansambl bo‘yicha: friz kamida uch xil torli cholg‘uni (arfa, ud, do‘mbrasimon) birgalikda ko‘rsatadi, ya’ni aralash torli ansamblda ijro qilish amaliyoti mavjud bo‘lgan. Uchinchidan, cholg‘u bilimi bo‘yicha: tasvirlar cholg‘ularning kosa shakli, dasta uzunligi va torlar joylashuvini ko‘rsatadi; bu Baqtriyada kamida uch tuzilishdagi torli cholg‘ular bilan ishlash bilimi mavjud bo‘lganidan dalolat beradi. Lekin yasash texnologiyasi, materiallar va sozlash usullari tasvirdan ko‘rinmaydi va faqat boshqa manbalar (arxeologik topilma qoldiqlari, yozma ma’lumotlar) bilan to‘ldirilishi mumkin.

Jamoa va kontekst bilimlari: Masson, Trever, Pugachenkova talqinlari

M. Masson 1933-yilda e'lon qilingan maqolasida uch musiqachi tasvirlangan relyefli plitani tahlil qilib, uning me'moriy xususiyatlariga e'tibor qaratgan. Tadqiqotchi plitaning yuqori qismidagi og'ir va mustahkam karniz konstruksiyasi oddiy maishiy inshootga emas, balki barqaror va salmoqli me'moriy tuzilmaga mo'ljallangan bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi va "mazkur relyef, ehtimol, buddaviy stupa tarkibiga kirgan yoki muayyan muhim voqea munosabati bilan barpo etilgan yodgorlikning bir qismi bo'lgan", degan xulosani ilgari suradi. Bu fikrlar E. Rtveladzening "Ayritom – podshoh Huvishkaning sulolaviy ibodatxonasi" (2018) maqolasida ham tahlil qilingan [14, 15]. Biz Massonning kuzatuvlarini qo'llab-quvvatlaymiz: karnizning mustahkamligi Ayritomning shunchaki bezak emas, balki muayyan mafkuraviy markaz – stupa yoki sulolaviy ibodatxona bo'lganidan dalolat beradi. Bu esa musiqachilar tasviri marosim makonining qasddan yaratilgan, doimiy elementi bo'lganini, ya'ni musiqa ijrosi ibodat makonida o'z o'rniga ega bo'lganini bildiradi (1-jadvaldagi 6-parametr).

K. Trever musiqachilar frizini buddaviy talqin qilishga ehtiyotkorlik bilan yondashadi. Kompozitsiyada "pancha mahashabda", ya'ni beshta muqaddas ovoz tasviri ifodalangan, degan izoh mavjud, biroq Trever bu talqinni yetarli asosga ega emas, deb hisoblaydi. Shubhasini dalillash uchun u Sanchi stupasining sharqiy darvozasidagi tasvirlarga murojaat qiladi: u yerda qirollik orkestriga mansub yetti musiqachi aks ettirilgan bo'lib, bu sahna diniy emas, dunyoviy xarakterdagi kompozitsiya tarkibida joylashgan [16]. Shu asosda Trever Baqtriya frizidagi musiqachilar tasvirini bevosita diniy-buddaviy mazmun bilan bog'lash to'liq asosli emasligini, kompozitsiya ko'proq dunyoviy yoki marosimiy xarakterga ega bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi. Bu talqin ijro ko'nikmalari ham diniy, ham dunyoviy-saroy amaliyotida qo'llanilgan bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.

G. Pugachenkova Ayritom frizida tasvirlangan barcha musiqachi ayollar baqtriyalik antropologik tipga mansub ekanini alohida ta’kidlaydi: ularning yuz shakli, burni, ko‘z tuzilishi va boshqa belgilari mahalliy aholiga xosdir [17]. Friz musiqachilarini buddaviy ramzlar bilan bog‘lash mumkin, biroq antropologik va arxeologik dalillar ularning mahalliy aholiga tegishli ekanini ko‘rsatadi. Ayritom ustalari hind mifologik qahramonlari – gandxarvalarni mahalliy aholi qiyofasida tasvirlagan; bu “g‘oya importi va shakl eksporti” hodisasidir: buddaviy g‘oya kirib kelgan, biroq u mahalliy vizual tilga tarjima qilingan. Rasmlarda ham ijrochilarning o‘rama, naqshli bosh kiyim, sirg‘a va marjonlari mahalliy kiyinish an’anasini aks ettiradi (1-jadvaldagi 5-parametr).

Masson, Trever va Pugachenkova qarashlari bir-birini to‘ldiradi: Masson ijro amaliyotining ibodat makonidagi o‘rnini, Trever uning dunyoviy-saroy jihatini, Pugachenkova esa ijrochilar jamoasining mahalliy tarkibini ochib beradi. Bu uch jihat birlashganda friz buddaviy g‘oya mahalliy hukmdorlar homiyligida, mahalliy ustalar tomonidan, mahalliy ijrochilik va tasviriy tilda qayta yaratilganini ko‘rsatadi. Bu esa nomoddiy merosning asosiy tamoyili – bilim va ko‘nikmalarning jamoa tomonidan o‘z sharoitiga moslab qayta yaratilishi – antik davrda ham amal qilganini bildiradi.

Bugungi an’anaviy bilim va ko‘nikmalar bilan taqqoslash chegaralari

Antik tasvirlardan bugungi nomoddiy meros elementlari bilan davomiylik borasida xulosa chiqarishda ehtiyotkorlik talab etiladi. Bugungi tirik amaliyotlarga – masalan, Boysun tumani madaniy maydonida marosim kuylari puflama yoki torli cholg‘ular jo‘rligida ijro etilishiga [18] yoki rubob yasash va chalish san’atiga – nisbatan Ayritom tasvirlari uchun faqat tipologik yaqinlik haqida gapirish mumkin: torli cholg‘ularni ko‘krak oldida tutish, ansamblda ijro qilish, marosimiy kontekstda ijro mavjudligi. Bu yaqinlik to‘g‘ridan-to‘g‘ri uzluksizlik isboti emas, balki tadqiqot farazidir. Uni tasdiqlash yoki rad etish uchun o‘rta asr yozma va ikonografik

manbalaridagi oraliq bo‘g‘inlar hamda bugungi ijrochi va usta jamoalar bilan olib boriladigan dala tadqiqotlari talab qilinadi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari quyidagilarni ko‘rsatdi. Birinchidan, Shimoliy Baqtriya antik davr musiqa ikonografiyasi nafaqat arxeologiya manbasi, balki nomoddiy madaniy merosning tarkibiy qismi bo‘lgan an’anaviy bilim va ijrochilik ko‘nikmalarini hujjatlashtirish manbai hamdir. Ikkinchidan, tasvirdan olinadigan bilim va ko‘nikmalarni uch guruhga (ijrochilik ko‘nikmalari, cholg‘u bilimi, jamoa va kontekst) bo‘lib tahlil qilish va har bir parametr bo‘yicha tasvirdan ko‘rinadigan va ko‘rinmaydigan jihatlarni ajratish mumkin. Uchinchidan, Ayritom frizi misolida torli cholg‘ularni ko‘krak oldida tutish, ikki qo‘l bilan boshqarish, arfa turidagi cholg‘uda barmoq bilan ijro, aralash torli ansamblda ijro qilish kabi ko‘nikmalarning tasviriy izi aniqlandi; Masson, Trever va Pugachenkova talqinlari esa ijro amaliyotining ibodat makonidagi o‘rni, dunyoviy-saroy jihati va mahalliy jamoa tarkibini ochib beradi. To‘rtinchidan, bugungi an’anaviy bilim va ko‘nikmalar bilan davomiylik haqida faqat tipologik yaqinlik haqida gapirish mumkin, to‘g‘ridan-to‘g‘ri uzluksizlik esa qo‘shimcha manbalar va dala tadqiqotlari bilan tekshirilishi lozim.

Kelgusi tadqiqotlarda terrakota va tosh haykaltaroshlik materiallarini yagona ma’lumotlar bazasida to‘plash, cholg‘ular va ijro holatlari tasvirini xronologik jihatdan tasniflash, qo‘shni mintaqalar bilan qiyoslash hamda bu ma’lumotlarni bugungi nomoddiy meros elementlari bo‘yicha dala materiallari bilan taqqoslash muhim vazifa bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Вызго Т.С. Музыкальные инструменты Средней Азии: Исторические очерки / Под науч. ред. Ф.М. Кароматова, Г.А. Пугаченковой. – Москва: «Музыка», 1980. – С. 13–49.
2. Вызго Т.С., Кароматов Ф.М. История музыки в изображениях. Институт искусствознания АН Республики Узбекистан. Т. IX. Средняя Азия. М(М), В-92, № 831. – Ташкент, 1985. – С. 5–8, 36–44.

3. Karomatov F.M., Meshkeris V.A., Vyzgo T.S. Musikgeschichte in Bildern: Mittelasien. Band II. Musik des Altertums, Lieferung 9: Mittelasien. – Leipzig: VEB Deutscher Verlag für Musik, 1987. – 178 p.
4. Садоков Р.Л. Музыкальная культура Древнего Хорезма. – Москва: «Наука», 1970. – С. 38–39.
5. Малькеева А.А. Музыкальный инструментарий народов Среднего Востока в аспекте музыкально-исторических взаимосвязей: дис. … канд. искусствоведения. М(М), М-21, № 799. – Ташкент, 1983. – С. 55, 106.
6. Nazarov A.F. Antik davr musiqa madaniyati. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi San’atshunoslik instituti. M(M), H-92, № 997. – Toshkent, 2003. – B. 23.
7. Мурадова З.А. Музыкальная иконография Узбекистана (на материале новых археологических находок) // Материалы по художественной и духовной культуре Узбекистана. – Ташкент: «San’at», 2014. – С. 119–154; Muradova Z.A. Qadim ud soziga bog‘liq yangi topilma // Guliston, 2015, № 2. – Toshkent. – B. 36; Мурадова З.А. Новые иконографические данные о фрикционных хордофонах Бактрии и Согда эпохи древности и раннего средневековья // Согдийский сборник. Вып. 3. – Saarbrücken: LAP Lambert Academic Publishing, 2016. – С. 101; Мурадова З.А. Новые иконографические данные о музыкальных связях на Великом Шелковом пути // Археология Узбекистана, 2017, № 1 (14). – Самарканд. – С. 11–17.
8. Karomat D., Malkeeva O. Musical interrelations between Central Asia, India and China: the case of the Lute // Central Asia, China and India: Historical, Economic, Political and Cultural Relations / Ed. R. Doraiswamy. – New Delhi, 2017. – P. 200–223.
9. Convention for the Safeguarding of the Intangible Cultural Heritage. – Paris: UNESCO, 17 October 2003. – https://ich.unesco.org/en/convention
10. UNESCO. Lists of Intangible Cultural Heritage and the Register of Good Safeguarding Practices (O‘zbekiston elementlari). – https://ich.unesco.org/en/lists
11. Strabon. Geografiya (Strabo. Geographica), XV kitob, 3-bob (forslar urf-odatlari haqida).
12. Picken L. The origin of the short lute // The Galpin Society Journal, Vol. 8, March 1955. – P. 32–42.
13. Pidayev Sh.R. Qadimgi O‘zbekistonda buddaviylik va buddaviy meros: kitob-albom. – Toshkent: «O‘zbekiston», 2011. – B. 18, 22.
14. Массон М.Е. Находки фрагментов скульптурного карниза первых веков н.э. // Известия Узкомстариса. – Ташкент, 1933. – С. 11–16.
15. Ртвеладзе Э.В. Айритам – династический храм царя Хувишки // Вестник древней истории. Т. 78, № 2, апрель–июнь. – Москва: Наука, 2018. – С. 365–388.
16. Тревер К.В. Памятники греко-бактрийского искусства. (Памятники культуры и искусства в собраниях Эрмитажа, Вып. 1). – Москва–Ленинград: Государственный Эрмитаж, 1940. – С. 178.
17. Pugachenkova G.A. The Buddhist Monuments of Airtam // SRAA, 2, 1991/92; Пугаченкова Г.А., Рempель Л.И. История искусств Узбекистана: с древнейших времён до середины девятнадцатого века. – М.: Искусство, 1965. – С. 76–77.
18. Cultural space of Boysun District // UNESCO Representative List of the Intangible Cultural Heritage of Humanity, 2008 (00019). – https://ich.unesco.org/en/RL/cultural-space-of-boysun-district-00019

References

1. Vyzgo, T. S. *Muzykal'nyye instrumenty Sredney Azii: Istoricheskiye ocherki [Musical Instruments of Central Asia: Historical Essays]*. Edited by F. M. Karomatov and G. A. Pugachenkova. Moscow: Muzyka, 1980. (in Russian)
2. Vyzgo, T. S., and F. M. Karomatov. *Istoriya muzyki v izobrazheniyakh. Vol. 9, Srednyaya Aziya [History of Music in Images. Vol. 9, Central Asia]*. Manuscript M(M), V-92, no. 831. Tashkent: Institut iskusstvoznaniya AN Respubliki Uzbekistan, 1985. (in Russian)
3. Karomatov, F. M., V. A. Meshkeris, and T. S. Vyzgo. *Musikgeschichte in Bildern: Mittelasien. Band II, Musik des Altertums, Lieferung 9 [History of Music in Pictures: Central Asia. Vol. II, Music of Antiquity, Part 9]*. Leipzig: VEB Deutscher Verlag für Musik, 1987. (in German)
4. Sadokov, R. L. *Muzykal'naya kul'tura Drevnego Khorezma [Musical Culture of Ancient Khorezm]*. Moscow: Nauka, 1970. (in Russian)
5. Mal'keyeva, A. A. *"Muzykal'nyy instrumentariy narodov Srednego Vostoka v aspekte muzykal'no-istoricheskikh vzaimosvyazey [Musical Instruments of the Peoples of the Middle East in the Context of Musical and Historical Interrelations]."* Candidate of Art Studies diss., Manuscript M(M), M-21, no. 799, Tashkent, 1983. (in Russian)
6. Nazarov, A. F. *Antik davr musiqa madaniyati [Musical Culture of Antiquity]*. Manuscript M(M), N-92, no. 997. Institute of Art Studies, Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, Tashkent, 2003. (in Uzbek)
7. Muradova, Z. A. *"Muzykal'naya ikonografiya Uzbekistana (na materiale novykh arkheologicheskikh nakhodok) [Musical Iconography of Uzbekistan (Based on New Archaeological Finds)]."* In *Materialy po khudozhestvennoy i dukhovnoy kul'ture Uzbekistana*, 119–154. Tashkent: San'at, 2014. (in Russian); Muradova, Z. A. *"Qadim ud soziga bog'liq yangi topilma [A New Find Related to the Ancient Oud]." Guliston* no. 2 (2015): 36. (in Uzbek); Muradova, Z. A. *"Novyye ikonograficheskiye dannyye o friktsionnykh khordofonakh Baktrii i Sogda epokhi drevnosti i rannego srednevekov'ya [New Iconographic Data on Friction Chordophones of Bactria and Sogdiana in Antiquity and the Early Middle Ages]."* In *Sogdiyskiy sbornik* 3: 101. Saarbrücken: LAP Lambert Academic Publishing, 2016. (in Russian); Muradova, Z. A. *"Novyye ikonograficheskiye dannyye o muzykal'nykh svyazyakh na Velikom Shelkovom puti [New Iconographic Data on Musical Connections along the Great Silk Road]." Arkheologiya Uzbekistana* no. 1 (14) (2017): 11–17. (in Russian)
8. Karomat, D., and O. Malkeeva. *"Musical Interrelations between Central Asia, India and China: The Case of the Lute."* In *Central Asia, China and India: Historical, Economic, Political and Cultural Relations*, edited by R. Doraiswamy, 200–223. New Delhi, 2017.
9. UNESCO. *Convention for the Safeguarding of the Intangible Cultural Heritage*. Paris: UNESCO, October 17, 2003. https://ich.unesco.org/en/convention
10. UNESCO. *"Lists of Intangible Cultural Heritage and the Register of Good Safeguarding Practices (Elements of Uzbekistan)."* https://ich.unesco.org/en/lists
11. Strabo. *Geography*. Book 15, chap. 3 (on the customs of the Persians).
12. Picken, L. *"The Origin of the Short Lute." The Galpin Society Journal* 8 (March 1955): 32–42.
13. Pidayev, Sh. R. *Qadimgi O'zbekistonda buddaviylik va buddaviy meros: kitob-albom [Buddhism and Buddhist Heritage in Ancient Uzbekistan: Book-Album]*. Tashkent: O'zbekiston, 2011. (in Uzbek)
14. Masson, M. Ye. *"Nakhodki fragmentov skul'pturnogo karniza pervykh vekov n.e. [Finds of Fragments of a Sculptural Cornice from the First Centuries CE]." Izvestiya Uzkomstarisa* (Tashkent), 1933: 11–16. (in Russian)

15. Rtveladze, E. V. *“Ayritam – dinasticheskiy khram tsarya Khuvishki [Airtam: The Dynastic Temple of King Huvishka].” Vestnik drevney istorii* 78, no. 2 (April–June 2018): 365–388. (in Russian)
16. Trever, K. V. *Pamyatniki greko-baktriyskogo iskusstva [Monuments of Greco-Bactrian Art].* Pamyatniki kul’tury i iskusstva v sobraniyakh Ermitazha, no. 1. Moscow; Leningrad: Gosudarstvennyy Ermitazh, 1940. (in Russian)
17. Pugachenkova, G. A. *“The Buddhist Monuments of Airtam.” SRAA* 2 (1991/92); Pugachenkova, G. A., and L. I. Rempel’. *Istoriya iskusstv Uzbekistana: s drevneyshikh vremën do serediny devyatnadtsatogo veka [History of the Arts of Uzbekistan: From Ancient Times to the Mid-Nineteenth Century].* Moscow: Iskusstvo, 1965. (in Russian)
18. *“Cultural Space of Boysun District.”* UNESCO Representative List of the Intangible Cultural Heritage of Humanity, 2008 (00019). https://ich.unesco.org/en/RL/cultural-space-of-boysun-district-00019